

Vazirlik va idoralar o'rtasidagi Mustaqillik kubogini Fanlar akademiyasi jamoasi qo'lga kiritdi!

1-sentabr - Mustaqillik kuniga bag'ishlab, "Zakovat" tarixida ikkinchi bor Mustaqillik kubogi o'tkazildi. Unda vazirlik va davlat idoralari xodimlaridan tuzilgan jamoalar g'oliblik uchun kurashdi.

Murosasiz o'tgan o'yin yakunida kubok egasi 3 ta jamoa o'rtaida o'tkazilgan qo'shimcha savollar orqali aniqlandi.

Jami 84 ta jamoa qatnashgan musobaqada quyidagi jamoalar sovrinli o'rnlarni egalladi:

- 1-o'rin: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi;
- 2-o'rin: Raqamli texnologiyalar vazirligi;
- 3-o'rin: Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markaz.

G'olib jamoalar diplom, medallar, noutbuklar hamda smart televizorlar bilan taqdirlandi!





Shuningdek, musobaqada 1-o'rinni egallagan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasiga maxsus tayyorlangan Mustaqillik kubogi topshirildi!

Fanlar akademiyasi jamoasini ushbu yutuq bilan tabriklaymiz va kelgusida faoliyatlarida yangidan yangi zafarlar tilab qolamiz!